

KARDIOLOGIYA SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI*Mardonova Shoxista Rustam qizi**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi**Sayfiyeva Dilnoza Shokir qizi**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi**Mamirjonova Sug'diyona Vahobovna**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi*

Ishning maqsadi: Kardiologiyaning tarixiy rivojlanish jarayonini o'rganish va tahlil qilish, bu sohaning qadimgi davrlardan zamonaviy tibbiyotgacha bo'lgan evolyutsiyasini yoritib berish shuningdek, Ibn Sino (Avitsenna) kabi buyuk olimlarning kardiologiya rivojidadagi o'ziga xos hissasini chuqur o'rganishdan iborat.

Tadqiqot natijalari:

1.Kardiologiya-yurak va qon tomir tizimining kasalliklarini o'rganuvchi tibbiyotning mustaqil sohasi bo'lib, uning tarixiy rivojlanish jarayoni ming yilliklarni qamrab oladi. Ushbu bo'limda kardiologiyaning ilmiy asoslarini shakllantirgan asosiy bosqichlar, metodologik o'zgarishlar va ularning rivojlanishi tahlil etiladi. **Qadimgi davr** (miloddan avvalgi 3000-milodiy 500 yillar).Kardiologiyaning eng dastlabki izlari qadimgi Misrda va Hindistonda uchraydi. Misrliklar yurakni "hayot markazi" deb bilgan, ammo qon aylanish tushunchasi yo'q edi. Yunonistonda Gippokrat (miloddan avvalgi 460-370) yurakni "issiq organ" deb ta'riflagan, Galen (miloddan avvalgi 129-200) esa arteriya va venalarni ajratgan bo'lsada, qon aylanishni noto'g'ri tushungan. **O'rta asrlar** (500-1500yillar) Islom olamida Ibn Sino va Ar-Roziy kardiologiyani ilmiy darajaga ko'targan. Ibn Sino "Al-Qanun fi al-Tibb" (Tib qonunlari) asarida puls diagnostikasini tizimlashtirgan, yurakni qon aylanishining markazi deb ko'rsatgan. Shu vaqtlari Yevropada esa Galen nazariyasi hukmron bo'lib, tajribaviy tadqiqotlar deyarli ko'zga ko'rinmagan. **Renessans va ilmiy inqilob** (1500-1800). Uilyam Garvey(1628) "De Motu Cordis" asarida qonning katta va kichik aylanishini isbotlagan-bu kardiologiyaning paradigmatic o'zgarishining boshlanishi bo'lgan. Bundan tashqari, 1895-yildagi Rentgen nurlarni kash etilishi va 1902-yildagi Eyntxovenning elektrokardiografiyasi (EKG) yurak kasalliklarini (aritmia, miokard infarkti) tashxislashda inqilob yasagan, shifokorning sezgilarini mashinalarga almashtirgan va shu vaqtdan boshlab kardiologiyani mustaqil soha sifatida rivojlanishiga imkon yaratilgan.

2.Bu qismda kardiologiyaning qadimgi davrlardan zamonaviy tibbiyotgacha bo'lgan evolyutsiya (vaqt o'tishi bilan o'zgarish,moslashish va rivojlanish)si yoritilgan. Kardiologiyaning evolyutsiyasi insoniyatning tabiat va o'z tanasini tushinishdagi umumiy taraqqiyotini aks ettiradi. Bu soha insoniyat tarixida ming yillik

evolyutsiyani bosib o'tgan bo'lib, qadimgi davrlardagi oddiy kuzatuvlardan tortib, zamonaviy texnologiyalargacha rivojlangan. Kardiologiya sohasining rivojlanishi tibbiyotning boshqa sohaslariga ham katta ta'sir ko'rsatgan, chunki yurak kasalliklari inson salomatligining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, har bir davrda olimlar tomonidan yangi kashfiyotlar, g'oyalar va tushunchalar kashf etilgan va bular o'z davrining yirik o'zgarishlaridan bo'lgan. Shu bilan birga savol tug'iladi, hozirgi zamonaviy kardiologiyada qanchalik o'zgarishlar bo'ldi va rivojlandi?-deb. Zamonaviy kardiologiya "aqli tibbiyot" davriga o'tdi, ya'ni yurak diagnostikalari uchun har xil sun'iy intellekt (AI) lardan foydalanish, genetik davolash va davolashda turli xil texnologiyalardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu o'zgarishlar yurak kasalliklarini erta aniqlash, davolash va oldini olishni yaxshiladi. Kardiologiya qadimgi "yurak-ruh joyi" tushunchasidan hozirgi "yurak-murakkab bioelektr tizim" nazariyasigacha evolyutsiyalashdi. Bu evolyutsiyada qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan har bir bosqish oldingilarining cheklovlarini bartaraf etdi. Bugungi kunda kardiologiya nafaqat davolaydi, balki kasallikni oldindan bashorat qiladi hattoki, butunlay oldini olish yo'lida. Xulosa qilganda: Kardiologiya evolyutsiyasi- "yurak nima?" savolidan "yurakni qanday tiklash mumkin?" savoligacha yetdi.

3. Abu Ali ibn Sino (lotincha Avitsenna, 980-1037) -o'rta asr tibbiyotining eng buyuk olimlaridan biri bo'lib, kardiologiyaning ilmiy asoslarini qo'ygan shaxslardan hisoblanadi. Bu qismda Abu Ali ibn Sinoning pulsologiyani tizimlashtirish va "Kitob al-Adviyat al-Qalbiya" (yurak dorilar kitobi) haqida ma'lumotlar keltiriladi. **Pulsologiyani tizimlashtirish:** Ibn Sino pulsni yurak va qon tomir tizimi holatini aks ettiruvchi eng muhim diagnostik belgi deb bilgan va uni 10ta asosiy parametr bo'yicha tasniflagan: ritm, tezlik, kuch, to'lqin shakli, to'ldirilish darajasi, harorat, davriylik va boshqalar. U puls turlarini hayvonlar harakati bilan taqqoslagan:

"qush parvozi" – tez va zaif (bugungi ekstrasistoliya, anemiya);

"ilon siljishi" – sekin va to'lqinli (aorta yetishmovchiligi);

"chumoli yurishi" – mayda va tez (shok).

Bu tasnif zamonaviy aritmiya va qon aylanish yetishmovchiligini tashxislashning dastlabki shakli hisoblanadi. Ibn Sino yurakni "qon harakatining asosiy dvigateli"deb ta'riflagan. U yurakning 4 bo'limini (2 bo'lmacha, 2 qorincha) va valvularini to'g'ri tasvirlagan. "**Kitab al-Adviyat al-Qalbiyya**" da 76 ta dori vositasini (asosan o'simliklar,ba'zilar hayvon va mineraldan kelib chiqishi) yurak va qon tomir kasalliklarini davolash uchun tavsiya qilgan. U dorilarni 4ta asosiy guruhga ajratgan bular:

1. Yurakni quvvatlovchi va tonus beruvchilar dorilar
2. Yurakni tinchlantiruvchi va aritmiyaga qarshi dorilar
3. Yurak og'rig'iga qarshi dorilar

4. Yurak shishiga va qon aylanish yetishmovchiligiga qarshi dorilar

Bundan tashqari Ibn Sinoning dori berish qoidalari bo'lgan misol uchun dorini be'morning temperamentiga moslab berish, dozani asta-sekin oshirish va kuzatish, ovqat bilan birga berish va ruhiy tinchlik – dori ta'sirini kuchaytiradi. Ibn Sino kardiologiyani emperik san'atdan ilmiy fan darajasiga ko'targan. Puls diagnostikasi, yurak fiziologiyasi va farmakologiyasi oid g'oyalar 1000 yildan ortiq vaqt o'tib ham dolzarbligi yo'qolmayapti. Zamonaviy kardiologiya ko'p jihatdan Avitsenna qo'ygan poydevorga qurilgan desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa: Kardiologiya qadimgi davrdagi davolashlardan AI tahliliga qadar uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ibn Sino kabi olimlar bu yo'lda “ko'prik” bo'lib, sharq va g'arb, nazariya va amaliyotni bog'ladi. Kelajakda kardiologiya nafaqat davolaydi, balki oldindan bashorat qilib kasallikni yo'q qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Kardiologiya va yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish bo'yicha milliy dastur. Toshkent, 2022.
2. Karimov, B. B., Xolmatov, S. M. *Tibbiyot tarixi*. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2020.
3. Braunwald, E. *Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine*. 11-nashr. Elsevier, 2019.
4. Garrison, F. H. *An Introduction to the History of Medicine*. W.B. Saunders Company, 2018 (qayta nashr).
5. Topol, E. *Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again*. Basic Books, 2019.